

“SINCHALAK” QISSASINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Ruziyeva Sabina

SamDChTI o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10662901>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasining til xususiyatlari, asardagi so'zlarning o'quvchiga ko'rsatadigan pragmatik ta'siri hamda ifodalaydigan ma'nolar ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: pragmatik ta'sir, okkazonal ma'no, ko'chma ma'no.

LINGUOPRAGMATIC CHARACTERISTICS OF THE STORY "SINCHALAK"

Abstract. In this article, the language features of Abdulla Qahhor's short story "Sinchalak", the pragmatic effect of the words in the work on the reader, and the meanings they express are shown.

Key words: pragmatic effect, occasional meaning, figurative meaning.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАССКАЗА «СИНЧАЛАК»

Аннотация. В данной статье показаны языковые особенности рассказа Абдуллы Каххора «Синчалак», прагматическое воздействие слов в произведении на читателя, смыслы, которые они выражают.

Ключевые слова: прагматический эффект, окказиональное значение, переносное значение.

Bugungi zamonaviy tilshunosligda badiiy asarni lingvopragmatik jihatdan tahlili, asarda qo'llangan tasviriy vositalar, uslubiy vazifa bajaradigan so'zlar, ko'chma ma'nodagi so'z va so'z birikmalarining xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilinmoqda. Bu tahlillar orqali ijtimoiy tuzum vaziyati hamda ijodkorning o'ziga xos so'z qo'llash mahorati namoyon bo'ladi. Badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan tahlil qilish asarda keltirilgan so'zlarning leksik – semantik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda matnni faqatgina grammatik jihatdan emas, balki ma'noviy xususiyatlarini ham tahlil qilish masalasi qo'yilyapti. Ma'lumki, so'z ham moddiy, ham ma'no tomoniga ega. Birgina moddiy orqali so'zda turli xil ma'nolar anglashishi mumkin. Til belgilar sistemasi ekan, unda faoliyat va shu faoliyat mahsuli ruh hamda moddiy kabilarni o'zida mujassamlashtiradi.

Taniqli adib Abdulla Qahhor o'z asarlarida o'sha davr tuzumini qisqa, ammo keng ma'noga ega bo'lgan so'zlar orqali ifodalaydi. Bu kabi xususiyatlarni “Sinchalak” qissasi orqali leksik-semantik jihatdan tahlil qilishga harakat qildik. Avvalo, Abdulla Qahhor o'z asarlari orqali o'sha davr muhitini o'quvchiga ochib berish uchun shu davrdagi faol so'zlardan keng foydalangan. Sovet hukumati davrida ishlatilgan, lekin hozirga kelib arxaiklashib qolgan so'zlarni qo'llagan. Masalan, *prava, uchastka, nachalnik, raport, pravleniy, kandidat, talant, sekretar*, (ruscha so'zlar) *kolxoz, savxoz prezidum*, (tarixiy so'zlar) *rayon, oblast* (arxaik so'zlar) va boshqalar. Asarda foydalanilgan bu so'zlar kitobxon davr muhitini, o'sha paytdagi hujjatchilik rus tilida ekanligini anglashga yordam beradi. O'quvchiga estetik ta'sir o'tkazish maqsadida ko'chma ma'nodagi so'z, ibora va so'z birikmalaridan foydalangan. Bu so'zlar badiiy asarda

uslubiy vazifani o'taydi. Misol uchun: *Sekretar kolxozning o'zidan bo'lsa Qalandarov uni qoqqanda qoziq, ilganda xumcha qilib olar ekan, rayondan yuborilsa sig'dirmas, cho'qib tashlar ekan;* "**Cho'qib tashlamoq**" asli ma'noda tumshug'i bilan ilib olib yemoq ma'nosida; ko'chma ma'noda esa hadeb urishavermoq, bo'lar- bo'lmasga koyiyvermoq; har yondan tinmay tanbeh bermoq; talamoq kabi ma'nolari izohli lug'atda ko'rsatib o'tilgan. Ayvonda xira osma chiroq allanechuk **kir yog'du** to'kib turibdi. "**Kir yog'du**" so'z birikmasidagi kir so'zining asl ma'nosi izohli lug'atda kir bosgan, kirlangan ma'nolarini berishi ko'rsatilgan, ammo ushbu gapda bu ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda yog'du so'zi bilan boshqa ma'noni berib, metofora hodisasi yuzaga kelishini ko'rishimiz mumkin. Endi shu **gapni ko'mib qo'ya qolsak**. "**Ko'mib qo'ymoq**" so'ziasl ma'nosida kovlangan yerga joylab ustini berkitmoq ma'nosini bersa, gapni so'zi bilan yana bir bor metofora hodisasini yuzaga kelishini guvohi bo'lamiz, bu yerda: bu gapni qaytmaylik degan ma'noda. Saida *piqillab kulib yubordi*. **Soyada o'sgan** raislardan, -dedi kulgi yoshini artib. "**Soyada o'sgan**" degan ibora rayon partiya konferensiyasidan chiqqan: ko'p vakillar muzokarada raykom byurosining faoliyatini tanqid qilib, kolxozlarda partiyaviy-siyosiy ishlar o'z holiga tashlab qo'yilganligi, siyosiy-tarbiyaviy ishlar xo'jalik ishlari soyasida qolib ketganligi, birmuncha kolxozlarda rahbar kadrlar soyada o'sayotganligi to'g'risida gapirishgan edi. **Soyada o'sgan**" iborasiga adib asar davomida o'zi aniqlik kiritib o'tgan. Kurort ora yo'lda qoldi-putyovkaning sakkiz kuni **kuydi**. "**Kuydi**" so'zi o'z ma'nosida alanga chiqarmoq, yonmoq ma'nosida bo'lsa, kontekstda esa bekor bo'lmoq, behuda ketmoq kabi ko'chma ma'noda kelgan. Ushbu ajratib ko'rsatigan so'zlar adresatni idrok etishga undaydi hamda kontekst orqali bu so'zlarning ma'nosini tushunib olishga zamin yaratadi.

Ijodkorning o'ziga xos xususiyatlaridan biri asarlarida noadabiy qatlam so'zlarini qo'llab o'quvchiga pragmatik ta'sir o'tkazadi. So'zlarning uzual ma'nosidan ko'ra okkazonal ma'nosini qo'llashni ma'qul ko'radi. Bu ma'no esa kontekstdan anglashiladi va individual xarakterda bo'ladi. Buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

*Qalandarov yo'l bo'yidagi tiniq yashil daraxtlar, barra o'tlardan ko'zi quvonib, kishining vujudini yayratadigan may havosidan mast bo'lib, xirgoyi qilib ketayotgan edi, yo'l bo'yida turgan militsioner qo'lidagi **ola tayoq** bilan yo'l chetini ko'rsatdi. (**ola tayoq** birikmasi DAN xodimlarining maxsus moslamasi ma'nosida);*

*Saida daftarini yopib, uzun **daromaddan** keyin voqeani aytib berdi.*

*-Men sizga aytmoqchi bo'lgan gapimni hali aytganim yo'q, bu gaplar hammasi **daromad** edi. (bunda **daromad** so'zi muhim voqeani aytishdan oldin gapni uzoqdan olib kelish ma'nosini bermoqda) Mana shunday noodatiyliklar kitobxonning diqqat-e'tiborini tortib, uning qaysi ma'noda kelayotganligini mushohada qilishga undaydi.*

O'zbek adabiyoti uchun xos bo'lgan an'analardan biri asarda maqol va matallarlardan foydalanish san'atidir. Maqollar qisqa so'zlar bilan ifodalansa ham katta ma'no tashiydi, antroposentrik ta'sir o'tkazadi. Ularda so'z tejalandi, ammo ma'nosi keng bo'ladi. Buning isbotini quyida keltirilgan namunalarda kuzatish mumkin:

*-**Butun bir ro'zg'orni ko'targan tuyaga bitta elak og'irlik qilgan ekan.***

***Moy aynisa tuz soladi, tuz aynisa ne soladi,** degan gap bor.*

“Igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqib o‘tirmaylik” degan gap Qalandarovga juda yoqib ketdi. Xuddi shunday maqollarni keltirish bilan o‘zbek xalqi mentaliteti uchun xos bo‘lgan jihatlarni yaqqol ko‘rsatib o‘tgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytilish kerakki, Abdulla Qahhor asarlarining mazmuniy strukturasi muhim o‘rin tutgan pragmatik xususiyatlarni ochib berishda turli til vositalari alohida ahamiyat kasb etishi ko‘p jihatdan yozuvchi uslubi va mahorati bilan bog‘liqdir. Yozuvchi o‘zbek xalqi mentaliteti, personajlarning ichki kechinmalarini mahort bilan asarlarida aks ettirgan.

REFERENCES

1. Соссюр Ф. Труды по языкознанию/Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков-м., 1956;
2. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влияние на духовное развитие человечества// Избранные труды по языкознанию.-М.,1984;
3. Abdulla Qahhor “Sinchalak”. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968>
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida (2006-2008).